

ISHLARNI SUDDA KO'RISH BOSQICHIDA PROKUROR VAKOLATLARI

*Toshkent viloyati
yuridik texnikum o'quvchisi
Xaydarova Ruxshona Shokir qizi*

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik sudlarni tashkil etish hamda ularning ustuvor vazifalari haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: sud minbari

Prokurorlar jinoyat sodir qilgan shaxslarni omma tomonidan qoralanishiga erishish uchun, sud muhokamasi hamma vaqt ham tarbiyalovchi rolini bajarishligi uchun sud minbaridan foydalanadilar. Sud minbari — o'ziga xos minbar hisoblanadi. Prokuror sudda ayblovni quvatlash uchun yuksak kasbiy salohiyatga ega bo'lishi, butun kasbiy mahorati bilan tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi kerak. Prokuror ayblovchi tariqasida darhol o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Ushbu vazifani bajarishi uchun qonunlarni o'zini o'zlashtirib olinganligining o'zi yetarli emas, ritorika asoslarini, notiqlik san'ati uslub va shakllarini egallagan bo'lishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi hamda yetarli darajada hayotiy tajribaga ham ega bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa, birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini oshkora ko'rilishida sud protsessida sudlanuvchi, sudlanuvchining barcha qarindoshlari, jabrlanuvchi va uning tarafdorlari, guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar, xolislar va h.k. ochiq sud majlisiga kirib o'tirgan fuqarolar sud muhokamasi yakuniga nisbatan ham katta qiziqish bilan qaraydilar. Sud tomonidan sudlanuvchiga nisbatan jazo chorasi belgilanishidan avval, prokuror ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini, jamiyat uchun, fuqarolar uchun sodir etilgan jinoyat tufayli yetkazilgan zararining xususiyatlari va miqdorini, ushbu jinoyatning kelib chiqish shart-sharoitlari va uning kelib chiqishiga yordam bergan sabablarni, shu sabablarni bartaraf qilinganqilinmaganligi, bartaraf qilish uchun hamda kelgusida shu kabi jinoyatlar sodir etilmasligi borasida qanday chora-tadbirlar belgilanishi lozimligini, sudlanuvchining aybi qaysi dalillarga ko'ra, o'z isbotini topayotganligini, sudlanuvchini ayni holatda sodir etilgan jinoyatga nisbatan munosabatini, sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining harakatlarini og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari nimalardan iborat ekanligini, sodir etilgan jinoyatga nisbatan qonun tomonidan qanday jazolar belgilanishi mumkinligini, sudlanuvchi qanday jazoga sazovorligi, uning sodir etgan jinoyatiga qanday jazo muvofiqligi, bevosita ushbu sudlanuvchiga nisbatan jazoning qaysi turi, qancha miqdorda belgilanishi hamda jazoni o'tash turi qanday bo'lishligi haqidagi o'zining fikrini bildiradi. Sud tomonidan sudlanuvchiga jazo tayinlanishi jarayonini barcha protsess ishtirokchilari sudlanuvchiga davlat tomonidan berilayotgan jazo yoxud sodir qilgan

jinoyati uchun davlat tomonidan qasd olinishi deb tushunmasliklari, balki qonunda belgilangan normani buzganligi uchun qonun tomonidan o'rnatilgan jazoga sazovor ekanligini va shu jazoni qonun tomonidan belgilanayotganligini tushunishlari hamda odil sudlov shu uslubda amalga oshirilishida prokuror qonun vakili sifatida sudga ko'maklashayotganligini tushunib yetishlari lozim. Chunki, sudlanuvchiga nisbatan jazo tayinlanganida davlatga nisbatan nafrat hissi emas, qonunni jinoiy qilmish orqali buzgan shaxsga nisbatan qilgan ishiga loyiq jazo tayinlanganligiga shubha qoldirmaydigan hissiyot paydo qilinishi kerak. Shu yerda bir narsani misol qilib o'tib ketish mumkin, ya'ni 220 volt yoki undan yuqori kuchlanishli elektr tokini inson hayoti uchun xavfli ekanligi hammaga ma'lum.

Agarda, kimdir shu tok bilan muomala qilish qoidalarini buzsa, tegishli xavfsizlik qoidalariga amal qilmasa va natijada elektr toki urib, tan jarohati olishi yoinki hayotidan ham mahrum bo'ladigan bo'lsa, hech kimda elektr tokiga nisbatan nafrat yoxud elektr tokini ayblash hissiyoti paydo bo'lmaydi. Barcha biladiki, elektr toki bilan o'ynashib bo'lmaydi. Elektr toki uchun har qanday shaxs kim bo'lishidan qat'i nazar, baribir xavfli hisoblanadi.

Kimki elektr toki bilan muomala qilish qoidasini buzsa, o'rnatilgan xavfsizlik qoidalariga amal qilmasa, albatta, uni elektr toki urishi va natijada, u tan jarohati olishi yoxud o'lishi mumkin. Bunday holda hech kimda elektr tokiga nisbatan e'tiroz bo'lmaydi. Endi, nima uchun jamiyatda o'rnatilgan qonun talablarini shaxslar tomonidan bila turib, qasddan buzilsa, jinoyat qonunchiligida belgilangan jinoyat deb topiladigan jinoiy qilmishlar sodir etilsa, uning uchun qonunda belgilangan jinoiy jazo tayinlanganida, jinoyat sodir etgan shaxsning o'zida va uning qarindoshlarida davlatga nisbatan, umuman olganda, qonunga nisbatan e'tirozi bo'lishi kerak? Unda bunday e'tiroz hissiyotini paydo qilmaslik va qonunga nisbatan hurmat bilan yondashish hissini uyg'otishlik jinoyat ishi bo'yicha ayblovni quvatlayotgan prokurorning kasbiy mahorati va notiqlik san'atiga bog'liq.

Prokuror qonun oldida barcha barobarligi, tengligi, qonun tomonidan bir shaxsga nisbatan ikkinchisiga hech qanday imtiyoz berilmaganligini, sodir qilingan jinoyat uchun jazoning muqarrarligini, hech bir shaxs asossiz ravishda sud tomonidan aybdor deb topilmasligini, har qanday shaxsning aybi oshkora ravishda sud tomonidan sud majlisida ko'rib chiqilib, odil sudlov tomonidan hal qilinishini, uning vazifasi odil sudlovga ko'maklashish ekanligini tushuna bilishi zarur.

Shubhasiz, sud muhokamasining og'irligi ishning haqiqiy holatini tekshirishni amalga oshiradigan sud tergovni hisobiga to'g'ri keladi. Sud muhokamasining aynan ushbu bosqichida ayblov uchun asos boigan dalillarni batafsil tekshirilishiga yo'l qo'yiladi hamda sudlanuvchiga unga qilinayotgan ayblov bo'yicha o'zini himoya qilish uchun o'z vajlarini keltirishning keng imkoniyati yaratiladi. Sud muhokamasining ushbu qismida sudlanuvchini, guvohlarni, ekspertlarni so'roq qilish,

ashyoviy dalillarni tekshirish, sudlanuvchini shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarni aniqlash tekshiriladi. Sud tergovini to'la va to'g'ri o'tkazish qonuniy va asoslangan hukm chiqarishga kafolat bo'lib xizmat qiladi. Sud sud muhokamasini o'tkazish uchun jinoyat ishi bo'yicha tayyorlov qismida o'tkazilishi lozim bo'lgan barcha protsessual harakatlarni bajarib bo'lgandan so'ng, jinoiy ish yurituvni davom ettirish uchun hech qanday to'siqlar yo'qligini aniqlaganidan keyin sud muhokamasining asosiy qismi hisoblangan — sud tergoviga o'tadi. Aynan shu yerda barcha to'plangan dalillar tekshiriladi va chiqariladigan hukm uchun zamin yaratiladi. Sud terгови — yangi protsessual sharoitda dalillarni mustaqil va ijodiy ravishda tekshirish bosqichidir. Bu bosqichda har bir dalil sud tomonidan har tomonlama va batafsil tekshirib chiqilishi kerak. Shuning uchun jinoyat ishi bo'yicha davlat ayblovini quvatlovchi hamda qonun bilan belgilangan prokurorlik vakolatini ta'minlovchi prokuror dalillarni tekshirishda faol qatnashishi va sud organlarining jinoyat ishi yuzasidan chiqargan har qanday qarorlarining qonuniyligini ta'minlash uchun o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlardan to'liq foydalanishi hamda isbotlash protsessi ishtirokchilarining jinoyat protsessual qonunchiligi talablariga qat'iy rioya etishlarini ta'minlash bo'yicha barcha choralarni ko'rishi kerak. Prokuror ushbu harakatlari bilan hukmni adolatli va ishonchli bo'lishi, o'zida haqiqatni aks ettirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, sud muhokamasida prokuror ishtirokining hamda sud tergovining protsessual maqsadi sudga ko'rib chiqish uchun taqdim qilingan dastlabki tergov materiallarini o'zining o'rganib chiqish emas, sud muhokamasi ishtirokchilari hamda bevosita sudning tashabbusi bilan to'plangan va taqdim qilingan dalillarni ham tekshirib chiqib, real haqiqatni aniqlash imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Sud terгови mobaynida quyidagilar aniqlanadi: jinoyat hodisasi; ayblanuvchining jinoyat sodir qilishdagi aybi; aybdorlik darajasi va xarakteriga ta'sir qiluvchi holatlar; jinoyat tufayli yetkazilgan zararining xarakteri va miqdori. Sud hukmining sifati, qonuniyligi, asoslanganligi hamda adolatlilik ko'pincha sud tergovining to'la, har tomonlama va obyektiv ravishda olib borilganligidan kelib chiqadi. Chunki sud hukmi sud terгови mobaynida aniqlangan dalillarga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1997-yil 2-maydagi «Sud hukmi to'g'risida»gi 2-qarori 4-bandida «Sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo'yniga olish holati u ish bo'yicha to'plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona tasdiqlangandagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo'la oladi. Bu talab ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emasligi va sudlanuvchining aybdorligi sud muhokamasi jarayonida isbotlangan taqdirdagina chiqarilishi lozimligi haqidagi JPKning 463-moddasi mazmunidan kelib chiqadi» deb qo'yilgan. Shuningdek, shu qarorning 3-bandi so'ngida «JPKning 26 va 455-moddalari talabiga binoan, hukm faqat sud majlisida tekshirilgan va sud majlisi bayonnomasida o'z aksini topgan dalillarga asoslantirilgan bo'lishi lozim» deb qayd qilib qo'yilgan. Ushbu qaror

talablaridan ko'rinib turibdiki, sud tergovni 0 'zbekiston Respublikasi JPKning 22-moddasi talablari asosida har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda amalga oshirilishi lozim. Sud bevosita va shaxsan barcha dalillarni sud muhokamasida tekshirib chiqishi shart. Sud tergovni mobaynida sud jinoyat ishi bo'yicha to'plangan barcha dalillarni tekshirib chiqishi, sudlanuvchilarni, jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspert va xolislarini qaytadan so'roq qilishi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishi, tegishli ekspertiza tayinlashi, sud tergovni eksperimentini o'tkazishi va h.k.larni bevosita va qisqa muddatda amalga oshirishi mumkin. Dastlabki tergov mobaynida to'plangan barcha dalillarni sud tergovida to'plangan dalillarga taqqoslab, solishtirib ko'rib, real haqiqatni aniqlab olishi mumkin. Sudning bu faoliyatiga esa, prokuror ko'maklashishi lozim. Hukmlarni asoslanganligi va qonuniyligiga ko'pincha sud tergovni mobaynida prokuror tomonidan haqiqatni aniqlashga faol ko'maklashishi ham sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.M. Madaliyev. Jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudlarida ko'rilishida prokuror ishtiroki. T., TDYI, 2005.
2. O.M. Madaliyev. Sud tergovni jarayonida prokurorning protsessual mavqeyi va ayblovni isbotlash majburiyati. 0 'quv-uslubiy qo'llanma. T., TDYI, 2006
3. В.М. Савицкий. Государственное обвинение в суде. М., «Наука», 1971